



2018 yil yanvar-avgust oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi




RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2659,6 mlrd.so'mni**, o'sish **8,4 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **-111,6 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **39,3 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **48,8 %**


2018 yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2659,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 8,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 2,1 baravarga va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 49,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar- avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



2018 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o`shishiga qo`shgan hissasi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2018 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,2 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 49,8 % ga oshganligini kuzatish mumkin.





Qayta ishlash sanoat

Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1582,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 59,5 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 985,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 37,1 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish sur'ati 8,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek 2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda: teri maxsulotlar ishlab chiqarish 27,7 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 2,1 baravarga hamda tog' kon sanoati 49,8 % ga oshganligi kuzatildi.




**Yanvar- avgust oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	2017 yil	2018 yil	2017 yil yanvar- avgustiga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	5,4	6,4	118,5
Paxta tolasi, ming tonna	29,5	27,1	91,9
Aroq – mig litr 100 % spirt	731,3	643,7	88,0
Elektr energiyasi, mlrd kvv/s	10,1	10,2	101,9
Paxta urug'i, ming tonna	47,5	43,0	90,5
Kalava ip, tonna	3354,7	2981,4	88,9
Sellyuloza, ming kg 90%	1299,3	452,8	34,8
Un, ming tonna	24,6	23,3	94,7
Kunjara, ming tonna	24,7	29,5	119,4

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1045,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 11,6 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 39,3 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar- avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 44,8 % dan 2018 yilning yanvar-avgust oylarida 46,4 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar- avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 940,9 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,4 % ulushini), Sirdaryo tumani 532,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,0 % ulushini), Guliston shahri 393,2 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 14,8 % ulushini), Boyovut 178,2 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,7 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar- avgust oyida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Shu bilan birga eng kam ulush Sardoba tumani 69,5 mlrd so'm (2,6 %), Xovost tumani 68,6 mlrd so'm (2,6 %) va Guliston tumani 50,8 mlrd so'm (1,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar- avgust oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3247,8 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 50859,7 ming so'm, Guliston shahrida 4450,5 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar- avgust oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Mirzaobod tumanida 130,2%, Yangiyer shahrida 121,8 % hamda Guliston shahrida 121,1%. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Guliston tumanida 77,5%, Boyovut tumanida 81,2% ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1297,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 48,8 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 109,6 foizni tashkil qilgan.

2018 yil yanvar-avgustida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: U.To'rayev
Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23